

DARSLARDA ZAMONAVIY O'QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH

SamDU qoshidagi 1-son akademik litseyi
T.R.Qodirov, N.J.Nigmatova, M.A. Gapparova


“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarori asosida chet tili darslarini o‘qitishda ko‘plab imkoniyatlar, sharoitlar yaratib berildi.

Shulardan misol keltiradigan bo‘lsak ta‘lim muassasasining chet tili xonalari kompyuter va multimedia texnikalari bilan jihozlandi, shu bilan birga zamonaviy metodikaga mos keluvchi adabiyotlar bilan ta‘minlandi. Hamman ham quvonarlisi chet el andozasida o‘qitilish uchun o‘qituvchilarning hammasi qayta malakalarini oshirishdi. Zamonaviy metodika bu chet tilini o‘rganishda 5 ta kompetentsiyadan iborat yo‘nalish bo‘yicha o‘qitishdir. Buning uchun avvalombor o‘qituvchining o‘zini shu yo‘nalishga tayyor bo‘lishini ta‘minlash maqsadida qator chora- tadbirlar joriy qilindi va shu kungacha olib borilmoqda. Masalan: 5 ta kompetensiya bo‘yicha barcha faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilar malaka oshirishdi va undan so‘ng davlat test markazi tomonidan har bir o‘qituvchi yuqorida aytilgan kompetensiyadan iborat 1. Eshitib tushunish 2.O‘qib tushunish 3. Yozib tushunish. 4. Gapirish 5. Grammatika dan iborat imtihonni topshirish kerak bo‘ladi. Ushbu imtihondan muvaffaqiyatli o‘tgan chet tili o‘qituvchi, u shaharda faoliyat ko‘rsatsa unga 15% ustama haqi qo‘shib beriladi. Agar o‘qituvchi qishloqda faoliyat ko‘rsatsa , unga 30% ustama haqi qo‘shib beriladi . Mana shu imkoniyatlar chet tili o‘qituvchilari uchun juda katta g‘amxo‘rlikdir.

Muassasalarda zamonaviy texnik vositalardan tashqari, o‘quvchilarga kompetensiyalarga mos keluvchi kitoblar bilan ta‘minlandi. Ushbu kitob 3ta qismdan iborat, ya‘ni o‘qituvchi kitobi, o‘quvchi kitobi va mashq kitoblaridan iborat. Bundan tashqari pedagogik kadrlarni mahoratini oshirish uchun vazirlik tomonidan, boshqarma tomonidan seminar treyninglar , uchrashuvlar, kechalar va videokonferensiyalar bo‘lib o‘tdi va shu kungacha davom etib kelmoqda. Mana shu shart – sharoitlarga javoban biz chet tili o‘qituvchilari chet el andozasi asosidagi o‘qitish metodikasida o‘quvchilarga ta‘lim berib kelmoqdamiz.


Bu metodikalar bilan o‘qitish juda katta samara bermoqda. Guruhlar bilan ishlash, kommunikativ topqirlik, o‘yinlar bilan tushuncha berish, mimika yoki gigika orqali tushuncha berish endi chet tili o‘qituvchilari uchun begona emas. Darsga yangicha yondashuv bu yoshlarni hozirgi kunda dolzarb bo‘lgan chet tilini o‘rganishda katta yordam bermoqda.

Misol keltirmoqchi bo‘lgan mana shu o‘yin boshqa fan o‘qituvchilariga ham asqotishi mumkin; Bu o‘yin o‘quvchilarni guruhlariga bo‘lish uchun ishlatiladi. Har bir kartochkada bir oila haqida ma‘lumot berilgan.



Mana shunday o'quvchilar soniga qarab kartochkalar sonini ko'paytirishingiz mumkin. Bu yerda 8 ta o'quvchi uchun tuzilgan. Har bir stol ustiga o'rtaga mana shu oilani qo'yib qo'yasiz. Xar bir oila a'zosini alohida bittadan **men** deb boshlab yozish kerak.

Har bir o'quvchiga mana shunday yozilgan, lekin keyingi kartochkaga navbatdagi oila a'zosiga men deb boshlagan kartochka beriladi va shunday qilib ular o'z oilasini topib olishadi. Topilgan oilalar OILA 1 atrofiga o'zlarining to'g'ri kelgan kartochkalarini joylashtirishlari kerak. Jam bo'lgan oila bitta guruh bo'ladi va guruhlar bilan ishlash boshlanadi.



Oilani topishda o'quvchilar bir- biriga **Seni kasbing nima? Sen oilada kimsan?** Kabi savollarni o'zi o'rganayotgan tilida berishi kerak. Mana shu o'yin nafaqat kommunikativ topqirlikni, balkim so'z boyligini ham oshiradi.

Har bir o'quvchiga mana shunday yozilgan, lekin keyingi kartochkaga navbatdagi oila a'zosiga men deb boshlagan kartochka beriladi va shunday qilib ular o'z oilasini topib olishadi. Topilgan oilalar OILA 1 atrofiga o'zlarining to'g'ri kelgan kartochkalarini joylashtirishlari kerak. Jam bo'lgan oila bitta guruh bo'ladi va guruhlar bilan ishlash boshlanadi. O'quvchilar joyidan turib bir-biriga savol orqali topib olishadi. Bundan oldin doskaga oilani topishda beriladigan savollar, ya'ni yangi so'zlar ustida mashqlar olib boriladi. Bu o'yin o'quvchilarni gapirish ko'nikmasini hosil qilishda katta yordam beradi. Bizga ma'lumki gapirish ko'nikmasi hozirgi kunda eng murakkab vazifalardan biridir.

Bunaqa o'yinlardan ko'plab misollar keltirish mumkin. Bizning maqsadimiz o'quvchilarni darsqa qiziqtirib ko'zlagan maqsadimizga erishishdir. O'quvchilar darsda erkin fikrlay olishlari uchun biz ularga turli xil zamonaviy usullardan foydalanishimiz kerak. Bunday zamonaviy usullar ayniqsa biz chet tili o'qituvchilari uchun juda tanish, chunki bizlarga bu usullarni 2008 yildan beri Toshkentdagi Goethe instituti tashabbuslari orqali o'rganib kelmoqdamiz. Bundan tashqari bizlar Olmoniya davlatiga metodik malaka oshirish kurslarida mana shunday qiziqarli va samarali usullarni o'rganib keldik. Buning uchun bizga mana shunday shart – sharoitlarni yaratib bergan yurt boshimizga va davlatimizga o'z minnatdorchiligimizni bildirgan holda, vatanimiz oldidagi burchimizni ado etmog'imiz kerak. Yoshlarga chet tilini o'rgatishda bebaho imkoniyatlardan foydalanishimiz kerak.